

ZAMONAVIY TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING YO'LLARI

Sharobiddin Hasanov, PhD,

O‘g‘iloy Haydarova, magistrant,

Andijon Davlat Universiteti Pedagogika Institute

Annotatsiya:

Pedagogikaning bosh masalasi tarbiyadir. Tarbiya - shaxsnii muayyan yo‘nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Insonni tarbiyasi haqidagi g‘oyalar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalarda aks etgan. Farzandlarimizni kelajakda kutayotgan muammolarning yechimini oz vaqtida topishga tayyorlash uchun ularni butun hayoti davomida timmay o‘qish va uqishga o‘rgatish lozim. Bolani kelajakda komil inson bo‘lib, hayotda o‘z o‘rnini topishida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi va kattalarning bolaga e’tibori muhimdir.

Ushbu maqolada zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning yo‘llari pedagogik jihatdan tadqiqq etilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiyachi, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatlari, tajriba, pedagogik kasbiy kompetentlik.

KIRISH

Ma’lumki, hozirgi davrda aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan yoshdar jamiyatni ilmiy texnik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ulkan kuch-quvvat manbai bo‘lib, ular kelajakda barcha sohalarda jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi lozim bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan yosh iqtidorli mutaxassislarni izlab topish, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish oliv maqsadlardan biridir.

Har qanday mamlakatning qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq. Mamlakatimizda shakllanib borayotgan umumiyligi ta’lim tizimi talabalarning intellektual va axloqiy imkoniyatlarini ochishga, ularning qobilayati va imkoniyatlariga muvofiq o‘qitish, qobiliyatli yoshlarni kamol topishiga imkon yaratmoqda kelajakda to‘g‘ri va ongli ravishda yo‘l tanlashlariga yordamlashish, talabalarni mehnat bozori va ta’lim mehnatining o‘zgaruvchan talablariga moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsnii rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirishi talab qilinmoqda. Keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ta’lim jarayonining ilg‘or texnologiyalarini o‘rganish va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etilishini taqozo qiladi. Bu esa. O‘z navbatida, pedagoglardan ta’lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni va hududimizning milliy, ma’naviy-

madaniy xususiyatlarini va an'analarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo'llash va ularni rivojlantirishni talab etadi.

Hozirgi zamon tarbiyachi - pedagogining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lган cheksiz sadoqat tarbiyachi-pedagogni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat pedagog va uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir.

"Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog'chasi dagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Bolalar bog'chasi ning pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish, savod o'rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko'nikma sistemasini egallab oladilar"[1, 132].

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanib borishi zamon talabiga mos ta'lim-tarbiyaga qaratilgandir. Maktabgacha ta'limda tarbiyachilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda, o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ijtimoiy tajribalarga asosan ish olib borish lozimdir.

Tarbiyachilar o'z ish faoliyatini quyidagi texnologik jarayonga bo'yundirishlari kerak:

- tartibga solish
- bir tizimga keltirish
- oldindan loyixalashtirish.

Ya'ni ushbu ta'lim - tarbiya jarayonini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish. Bunda ta'lim -tarbiya jarayoni quyidagi ketma-ketlikda loyihalashtiriladi:

1. Ta'lim - tarbiyani yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilash.
2. Ta'lim - tarbiya natijasini oldindan qayd etish.
3. O'quv mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zarur ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlash.
4. Oldindan qayd etilgan, aniq kafolatlangan natijaga erishish uchun zarur tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'yektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'yektiv baholash, qayta ishslash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim

oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'yektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli o'qituvchi deyishimiz mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'r'in egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lismi har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lismi, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. SHu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishslash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Pedagoglarning yoki tarbiyachilarning o'z ustilarida izchil, samarali ishslashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o'z ustida ishslash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi.

"Pedagog-tarbiyachi quyidagi Kompetentsiyaviy xususiyatlara ega bo'lishi lozim: Kompetentsiya - sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati. Kompetentlik-muayyan lavozimga mos o'z kasbining mohir egasi bo'lidan shaxsga xos sifat"[2, 26]. Shuningdek, "Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda qarakatlari, mimika, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olish lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak"[3, 33].

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishslash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Kasbiy kompetentsiya

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishslash;

- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnata olish;
- O'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetentsiyani shakllanish bosqichlari:

- O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
- O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

Shaxsiy kompetentsiya

- Muloqatchanlik
- Bag'rikenglik
- Yetakchilik
- Faollik va tashabbuskorlik
- Moslashuvchanlik
- Sog'lom turmush tarziga amal qilish
- Ma'suliyatatlilik
- Ishchanlik
- Insonparvarlik
- Samimiylilik
- Nazokatlilik.

Umummadaniy kompetentsiya

- Ma'lumotli
- Madaniyatli
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik
- Milliy madaniyatga ega bo'lish
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish.

Maxsus kompetentsiya

- Faniga doir maxsus metodlarni bilish
- O'quvchilar ehtiyojini bilish
- Turli yosh xususiyatlarini bilish.

Kasbiy komponentlikni shakllantirishda tarbiyachida quyidalar ham shakllangan bo'lishi lozim:

Pedagogik ijod – o'qituvchining mahorat pillapoyalaridan ko'tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo'lni, bu yo'ldagi qiyinchiliklardan qo'rmaslikni anglatadi. O'z navbatida bu sohada o'qituvchining

pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda o‘qituvchining aqliy, emotsiyal – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog‘liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchi-tarbiyachilik burchi, mas’uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e’tiqodini nazarda tutib, o‘qituvchining talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo‘yligi, to‘g‘riligini anglatadi.

Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) – o‘qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari o‘qituvchining kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va o‘qituvchi - tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi.

Insonparvarlik - insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to‘g‘risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxurlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Pedagoglarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, o‘zgalar muvoffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishdaadolatlilik.

Samimiylit - atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat Vatanni sevish- ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do‘stlariga sadoqatli bo‘lish va e’tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstituttsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzları, milliy urfatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Fidoiylik. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to‘plash, o‘rganish, avaylab saqlash va targ‘ib qilish.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta’lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg‘ulotlarda ta’lim berish orqali, ijodiy va qoidali o‘yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o‘z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sayrlar, gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta’lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir.

XULOSA

Pedagogning kasbiy kompetentsiyasi pedagogik (o‘quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minalaydi.

Kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lish uchun pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e’tiborni qaratishi zarur. O‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogga “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Toshkent, 2008.
2. N.Komilova va boshq. Pedagogik imidj va kompetentlik modulli bo‘yicha O‘UM. Toshkent, 2017.
3. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Toshkent, 2008.

4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent, 2003.
5. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2005.
6. Zumratkhon, I. (2022). INNOVATIVE ASPECTS OF TEACHING SPECIALTY SUBJECTS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION. *Research Focus*, 1(4), 341-345.
7. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 181-185.
8. Rasulova, A., & Karimov, U. (2022). Socio-Pedagogical aspects of the formation of reading culture and skills. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(4), 114-118.
9. Bakhrom, B. (2022). Information technologies in physical culture and sports. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 288-292.
10. Mamasoliev, R. (2020). BENEFITS OF INTRODUCING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 314-316).
11. Ibragimjanovna, A. M. (2022). About the Development Competence of Students Intercultural Communicative. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 350-356.
12. Алимжонова, М. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВНИНГ МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТГА ТАЪСИРИ ВА УНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(3), 323-328.
13. Ibragimov, V. (2022). METHODOLOGY OF STUDYING FOREIGN LANGUAGE LESSONS BY THE METHOD OF EXTRACURRICULAR PROJECT WORK ADVANTAGES. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 60-65.
14. Rayimov, A. A., & Karimova, G. Y. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. *Oriental Journal of Social Sciences*, 29-32.
15. Usmanov, N., Ganiev, B. S., & Karimova, G. Y. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. *Oriental Journal of Social Sciences*, 33-37.
16. Рафиковна, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 2(1).
17. Vaxobjon, I. (2022). BARKAMOL AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMYOYALASHNING MUHIM JIHATLARI. *Research Focus*, 1(4), 328-332.
18. Yuldashev, I., & Goynazarov, G. (2021). A need to improve the institutional system for increasing the social activity of young people at the stage of development. *Интернаука*, (12-3), 18-19.
19. Kurbanovna, Y. F. (2022). THE GROWTH OF ENGLISH STANDARD ENGLISH PRONUNCIATION IN ENGLISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 1960-1962.
20. Yusupjanova, F. (2021). EFFICIENCY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *Интернаука*, (14-3), 51-52.
21. Yuldashev, I. A. (2020). Pedagogical Bases Of Formation Of Social Activity In Pedagogical Sciences. *Теория и практика современной науки*, (5), 67-69.